



KOMILJON IMOMOVNING AFSONA JANRI BORASIDAGI ILMIIY QARASHLARI

Avazova Lobar Aktamovna,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti.

+99897 715-34-94

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1742>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 30

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

folklor, afsona, tasnif, mifologik, diniy, tarixiy, toponimik

Maqolada folklorshunos olim Komiljon Imomovning afsona janri xususidagi ilmiy qarashlari tahlilga tortilgan. Jumladan, afsonalarning janriy belgilari, tematik tasnifi, mifologik, diniy, tarixiy va toponimik kabi turlari misollar yordamida yoritilgan. Keltirilgan ma'lumotlar o'zbek folklorshunosligining nazariy tamoyillariga tayangan. Mazkur maqolada Komiljon Imomovning afsona janri haqidagi ilmiy konsepsiyalari, uning o'zbek folklorshunosligida afsonalarni tasniflash va janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi xizmatlari yoritiladi. Shuningdek, olim tomonidan afsonalarning tarixiylik, ishonchlik, bayon usuli, obrazlar tizimi va funksional vazifalariga oid ilgari surilgan qarashlar tahlil qilinadi. Afsonalarning xalqning mifologik tafakkuri, diniy e'tiqodlari, tarixiy xotirasi hamda geografik tasavvurlari bilan bog'liqligi ochib berilib, ularning milliy madaniyat va ma'naviy merosni saqlashdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Komiljon Imomov yaratgan nazariy qarashlar afsona janri boshqa og'zaki nasr turlaridan farqli jihatlarini aniqlash, uning ichki tipologiyasini tizimlashtirish hamda o'zbek folklorining poetik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Maqolada olimning ilmiy merosi zamonaviy folklorshunoslik nuqtai nazaridan baholanib, uning afsona nazariyasini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

ABOUT THE PAPER

ANNOTATION

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 30

KEYWORDS

folklore, legend, classification, mythological, religious, historical, toponymic

The article analyzes the scientific views of folklorist Komiljon Imomov on the genre of legends. In particular, the genre characteristics, thematic classification, mythological, religious, historical and toponymic types of legends are covered with examples. The information presented is based on the theoretical principles of Uzbek folklore. This article examines the scientific concepts of Komiljon Imomov regarding the genre of legends and highlights his contribution to the classification and theoretical interpretation of legends in Uzbek folklore studies. Particular attention is paid to his views on the genre-specific features of legends, including historicity, credibility, narrative structure, character system, and social functions. The article also explores the relationship between legends and mythological thinking, religious beliefs, historical memory, and geographical perceptions preserved in folk tradition. Furthermore, it demonstrates the role of legends in preserving national cultural heritage and transmitting collective knowledge across generations. Imomov's theoretical approaches are significant for distinguishing legends from other genres of oral prose, systematizing their internal typology, and revealing the unique poetic characteristics of Uzbek folklore. The study emphasizes the enduring scholarly value of his works and their importance for the further development of contemporary folklore research and genre theory.

Kirish. Folklorshunos olim Komiljon Imomovning tadqiqotchilik faoliyatiga nazar tashlagan kishi uning ilmiy qiziqishlari doirasida o'zbek xalq afsonalari va rivoyatlarini o'rganishga bo'lgan intilish alohida o'rin tutganligini ko'radi. O'zbek folklorining og'zaki nasrga mansub janrlarining tarixiy asoslari real hayotiy voqeelik haqidagi xalq qarashlariga bog'liq bo'lganligi uchun ham tadqiqotchi xalq nasri janrlarining tarixiylik mezonlarini belgilash, hayotiy voqeelikning poetik transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish, epik tur janrlarining shakllanish tarixi va spetsifikasini yoritish maqsadida jiddiy tadqiqotlar olib bordi. U og'zaki nasr janrlarining tarixiylikni belgilashda "genetik asos – ijtimoiy-siyosiy va maishiy hayot, etnografik substrat, urf-odat va turli xil dunyoqarashlar, real voqeelikka munosabat, tarixiy haqiqatni aks ettirish" kabi belgilarga tayanish lozimligini aniqladi.

Afsona janri o'ziga xos xususiyatlari, afsonalar tasnifi, mifologik, tarixiy va toponimik afsonalarda hayotiy voqeelik haqidagi axborotning epik talqin qilinishi, mifologik afsonalarning obrazlar talqini va qadimgi tasavvurlar bilan bog'liqligi kabi masalalar Komiljon Imomov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Uning "Afsona janri" (1974), "Obidalar haqidagi afsonalar" (1974), "To'maris" (1978), "Afsona" (1989), "Etiologik afsonalar" (2003), "Mifologik afsonalar" (2008) singari ilmiy maqolalari ana shu masalalarga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir.

O'zining butun ilmiy faoliyati davomida xalq nasri janrlarini izchil tadqiq etgan olim o'zining "O'zbek xalq nasri poetikasi" (2008) monografiyasida og'zaki nasrni o'rganishni tizimli ravishda yo'lga qo'yganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, og'zaki nasr janrlarining badiiylik darajasi va bajarangan funksiyalariga ko'ra ikki guruhga bo'lib o'rganilishi olimning ko'p yillik izlanishlari samarasidir. Uning fikricha, birinchi guruh janrlar (mif, afsona, rivoyat, demonik hikoyalar) olam va voqeelikni izohlash, tushuntirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi guruh janrlar (ertak, naql, latifa, lof) voqeelikni badiiy tasvirlashga yo'naltirilgandir.

Olimning "Afsona janri" maqolasida o'zbek xalq nasrining ertak janridan boshqa afsona, rivoyat, latifa, og'zaki hikoya kabi turlari olimning tadqiqotchilik davrigacha chuqur va mukammal o'rganilmaganligi haqida aytib o'tiladi. Bunga ilova tarzida rus folklorshunosligida bu masala birmuncha durust o'rganilganligi, jumladan, V.L.Komarovichning "Опыт изучения местных легенд", K.V.Chistovning "Социально-утопические легенды" va boshqa rus olimlarining asarlari nomlari keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Komiljon Imomov o'zbek folklorshunosligida xalq nasri janrlarini, ayniqsa afsona janri ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy merosida afsonalarning kelib chiqishi, janriy tabiati, tasnifi va poetik xususiyatlari masalalar alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotchi afsonalarni xalqning tarixiy xotirasi, qadimiy dunyoqarashi va estetik tafakkurining mahsuli sifatida baholaydi. K.Imomovning fikricha, og'zaki nasr janrlarini o'rganishda ularning tarixiylik mezonini, voqeelikni aks ettirish darajasi va xalq tafakkuridagi o'rni asosiy mezonlardan biri bo'lishi lozim [9, 34-38].

Olimning "O'zbek xalq nasri poetikasi" asari xalq nasri janrlarini tizimli o'rganishga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Ushbu monografiyada mif, afsona, rivoyat va demonologik hikoyalar voqeelikni tushuntirish va izohlash vazifasini bajaruvchi janrlar sifatida tavsiflangan bo'lsa, ertak, latifa va naql kabi janrlar badiiy-estetik funksiyasi bilan ajralib turishi ta'kidlanadi [2, 15-18]. Bu yondashuv xalq nasri janrlarini funksional jihatdan tasniflashga xizmat qiladi.

"Afsona janri" maqolasida K.Imomov afsonaning janriy belgilarini aniqlashga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, afsonalar muayyan voqea yoki hodisani fantastik unsurlar bilan boyitilgan holda hikoya qiladi va tinglovchida ishonch uyg'otish xususiyatiga ega bo'ladi. Afsona voqealari ko'pincha noaniq zamonda kechsa-da, qahramonlar va makon aniq ko'rsatiladi. Syujet ixchamligi, bayon

usulining soddaligi hamda voqelikni tushuntirishga yo'naltirilganligi mazkur janrning muhim belgilaridan sanaladi [7, 68-72].

Afsona janrining nazariy asoslarini yoritishda K.Imomov rus folklorshunoslarining qarashlariga ham murojaat qiladi. Xususan, V.Ya.Propp afsonalarni tasniflashda janrning muhim va barqaror belgilariga tayanish lozimligini qayd etadi. U tasnifning ilmiy asoslangan bo'lishi uchun ajratilgan mezonlar izchil va o'zgarmas xarakterga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, V.Ye.Gusev rus afsonalarini diniy, tarixiy va ijtimoiy-xayoliy turlarga ajratadi [4, 7-b]. Mazkur qarashlar K.Imomov tomonidan o'zbek afsonalarini tasniflashda ham nazariy asos sifatida qo'llanilgan.

Afsonalar tasnifi masalasi o'zbek folklorshunoslari tomonidan ham turlicha talqin qilingan. Jumladan, U.Jumanazarov afsonalarni tarixiy, diniy va toponimik turlarga ajratadi [1, 7-b]. N.Xotamov va B.Sarimsoqov esa afsonalarning tarixiy, diniy, maishiy va toponimik o'rinishlarini qayd etadilar [10, 159-160 b]. K.Imomov ushbu qarashlarni umumlashirib, afsonalarni mifologik, diniy, tarixiy va toponimik tiplarga ajratadi hamda ushbu tasnifning ilmiy jihatdan mukammalroq ekanligini asoslaydi [6, 6-b].

Mifologik afsonalar haqidagi tadqiqotlarida olim ushbu turdagi asarlarning qadimiy e'tiqodlar va mifologik tasavvurlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ularning syujetida xudolar, ma'budlar, pirlar, avliyolar va boshqa g'ayritabiiy kuchlar faol ishtirok etadi. K.Imomov mifologik afsonalarni ma'budlar va ilohlar haqidagi afsonalar, pirlar haqidagi afsonalar, etiologik afsonalar hamda ajdodlar kultiga oid afsonalar kabi guruhlarga ajratadi [2, 120-128 b]. Bu tasnif mifologik tafakkurning xalq og'zaki ijodidagi aksini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Diniy afsonalar masalasida tadqiqotchi ularning asosini islom dini bilan bog'liq qarashlar tashkil etishini qayd etadi. Diniy afsonalarda payg'ambarlar, avliyolar, shayxlar va tarixiy shaxslar faoliyatiga oid voqealar mo'jizaviy tarzda talqin qilinadi. Bunday asarlar xalq orasida diniy bilimlarni targ'ib qilish, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash va diniy dunyoqarashni shakllantirish vazifasini bajaradi [2, 135-142 b].

Tarixiy afsonalar haqidagi qarashlarida K.Imomov ushbu turdagi asarlar tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog'liq holda shakllanishini ta'kidlaydi. Iskandar Zulqarnayn, Luqmoni Hakim, Pahlavon Mahmud kabi tarixiy yoki yarim tarixiy qahramonlar tarixiy afsonalarning markaziy obrazlari sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchining fikricha, tarixiy afsonalarda real tarixiy faktlar xalq tasavvuri asosida qayta ishlanib, ideal qahramon obrazlari yaratiladi [2, 148-155 b].

Toponimik afsonalar esa geografik obyektlarning kelib chiqishi va nomlanishini izohlovchi hikoyalari sifatida tavsiflanadi. K.Imomovning qayd etishicha, bunday afsonalarda shahar, qishloq, tog', daryo va boshqa joy nomlarining paydo bo'lish sabablari xalqona talqin qilinadi. Toponimik afsonalar tarixiy-geografik ma'lumotlarni saqlashi, xalqning hududiy xotirasini aks ettirishi bilan ahamiyatlidir [6, 12-15 b].

Shuningdek, T.Mirzayev Komiljon Imomovning ilmiy faoliyatini baholar ekan, uning xalq nasri janrlarini o'rganishdagi xizmatlari o'zbek folklorshunosligida yangi nazariy yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratganini ta'kidlaydi [3, 265-268 b]. Olimning afsona janri bo'yicha olib borgan tadqiqotlari bugungi kunda ham xalq og'zaki ijodini janriy, tarixiy va poetik jihatdan o'rganishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda folklorshunos olim Komiljon Imomovning afsona janriga oid ilmiy qarashlarini o'rganishda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini olimning afsona janriga bag'ishlangan monografiya, maqola va ilmiy ishlari, shuningdek, o'zbek va jahon folklorshunosligiga oid nazariy adabiyotlar tashkil etdi. Afsonalarning janriy xususiyatlari, tasnifi hamda mifologik, diniy, tarixiy va toponimik turlariga oid qarashlar ilmiy tahlil qilinib, boshqa folklorshunoslarning yondashuvlari bilan qiyoslandi. Olingan ma'lumotlar umumlashirilib, Komiljon Imomovning o'zbek folklorshunosligida afsona nazariyasini rivojlantirishdagi o'rni va ilmiy konsepsiyalari yoritildi.

Natijalar. Bu kabi janrlarning batafsil o'rganilmaganligi nashr etishda va ular haqida aytilgan ba'zi fikrlarda ayrim chalkashliklarga olib kelingan. Vaholanki, mazkur turlar shakli va voqelikni bayon etish xarakteridagi o'xshashliklardan qat'iy nazar, ularning o'zaro farqli tomonlari ham mavjudki, bular har bir turning o'ziga xos hajmi, hikoya qilish usuli va xarakteri bilan belgilanadi.

Maqolada afsona janri uzoq tarixga ega ekanligi va ijtimoiy hayot bilan bog'liq voqea va hodisalarni aks ettirishi aytib o'tilgan. Shuning uchun ham bu turkum badiiy asarlar nasriy turning dastlabki namunalari biri bo'lib, tabiat va jamiyatni bilish hamda sezish bilan bog'liq bo'lgan ibtidoiy inson tushunchasi, estetikasi, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, urf-odati, tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Afsona janri fantastika, sehr-jodu hamda uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalardir. Bu kabi hikoyalari Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida saw saw so'zi orqali ifodalangan. Bu so'z devonda "hikoya" hamda "qissa" deb izohlangan. Mahmud Qoshg'ariy hikoya bilan qissani "o'tmish voqealardan xabar beruvchi" deb ta'riflaydi. Bas, shunday ekan, mazkur hikoyalarda "faqat o'tganlar haqida aytilishi shart emas" [5, 168-b]. Demak saw saw ham faktik voqea, ham xayolan to'qilgan hodisalarni hikoya qiladi. Shunday ekan, bu so'z shakl va mazmun jihati turlicha bo'lgan 2 xil hikoyani ifodalaydi. Birinchisi, o'tmish voqealarni fantastic detallsiz, uydirmalar asosidagina talqin etuvchi hikoyalar, ikkinchisi, muayyan tarixiy voqealar yoki xayolan to'qilgan hodisalarni sehr-jodu, fantastika hamda uydirmalar mag'zida talqin etuvchi hikoyalar. O'rni kelganda shuni aytish kerakki, birinchi tur hikoyalar shakl va mazmun e'tibori bilan rivoyatlarni, ikkinchi tur esa ko'proq afsonalarni eslatadi.

Maqoladagi yana bir salmoqli fikr-afsonaning rus tilidagi iste'mol formasi "legenda" ekanligi va u fors tilidan o'tgan "afsona" atamasidan farqlanishidir. Chunki afsona janrining ildizi sharq mifologiyasiga borib taqaladi. "Legenda" esa bevosita xristian dini ta'sirida yuzaga kelgan [7, 70-b] deyiladi. Olim bu borada A.Kirpichnikov, B.Tomashevskiy, V.Ya.Propp singari olimlar legendaga faqat xristian dini bilan bog'liq bo'lgan hikoya deb ta'rif berganliklari haqida aytadi.

Olim o'zining tadqiqotlarida afsonalarning janriy belgilarini birmabir sanab o'tadi. Xususan,

- muayyan fakt va mifologik voqealarni xayoliy tavsiflaydi;
- bayon etuvchi va tinglovchida ishonch uyg'otadi, ular uni rost deb biladi, hayotda yuz bergan hodisa sifatida qabul qiladi;
- tasvirlangan voqealar o'tmishdan darak beruvchi hikoya shaklida paydo bo'lib, ta'kidlash, tushuntirish, xabar berishga mo'ljallangan;
- unda e'tlon qilinishi kerak bo'lgan voqea va hodisalar talqini, bayon uslubiga asoslangan;

- badiiylik darajasi kuchsiz, ikkilamchi hodisa bo'lib, estetik ta'sir etuvchi kuchning qisman paydo bo'lishi ta'minlangan;

- voqea vaqti konkret emas, tarixiy fakt, hodisalar noaniq zamonda yuz beradi. Biroq, makon va qahramon, tarixda o'tgan mashhur kishi, sarkarda, jangovar shaxslar nomi aniq ko'rsatiladi;

- syujet tuzilishi ixcham, bir yoki ikki epizod-motivlar asosiga qurilgan bo'lib, aniq, yorqin ifodalangan;

- afsonani faqat professional ertakchi, noqil, roviy aytishi shart emas. Uni eshitgan, bilgan shaxs, xohlagan joy, istagan payt va nihoyat, o'zi bilgan shaklda, eng muhimi, biror obyekt bilan bog'liq holda bayon etadi;

- bu janrda obrazlar tizimini asosan 3 xil personaj tashkil etadi: bosh qahramon, yordamchi personaj va raqib personajlar;

- afsona din tashkil topmasdan avval yuzaga kelgan qabila e'tiqodi, otashparastlik va islom dini bilan bog'liq tushunchalar, yorug'lik bilan zulmat, ezgulik bilan yovuzlik kurashi, bosqinchiga qarshi jang voqealari, tinchlik himoyasi, chin sevgi, sadoqat, binoning paydo bo'lishi, buzilishi sababi, adolat va insonparvarlikni ifoda etgan mavzulardan tashkil topgan [2, 17-20 b].

Komiljon Imomov afsonalar tasnifida turli olimlarning qarashlarini beradi va so'nggida o'z tasnifini keltiradi. Jumladan, rus folklorshunosi V.Ya.Propp afsonalar tasnifida quyidagi uch xil mezonga asoslanadi:

Birinchi-ajratilgan belgi voqea va hodisalarning ahamiyatli tomonini aks ettirishi lozim;

Ikkinchisi- ko'rsatilgan belgi o'zgaruvchan emas, izchil, barqaror bo'lishi shart;

Uchinchisi- asos uchun ajratilgan belgi aniq shakllangan, har xil talqinlarga mayl bildirmaydigan bo'lishi kerak. Tasnif uchun ajratilgan mazkur mezonlar asosan afsonalarni o'rganish, ichki turga to'g'ri bo'lish imkonini beradi.

Yana bir olim V.Ye.Gusev esa rus afsonalarini uch turga- diniy, ijtimoiy-xayoliy, tarixiy tiplarga bo'ladi.

N.Xotamov, B.Sarimsoqovning "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'atida "Afsonalar tarixiy, toponimik, diniy, maishiy[10:160] turlarga ajratilgan.

U.Jumanazarov esa bu janrni mavzuiga ko'ra uch turga- toponimik, diniy va tarixiy afsonalarga [1, 7-b] bo'ladi.

Qozoq folklorshunosi Said Qasqabasov apsanalar (hikoyalar)ni mavzu, syujetlar tarkibi, g'oyaviy-badiiy tuzilishiga ko'ra "tasnif etib, tarixiy-toponimik, diniy-kitobiy va ijtimoiy-xayoliy" [4, 7-b] tiplarga bo'ladi.

Olim afsonalarni asosan mavzu mezonidan kelib chiqib, to'rt xil ichki tipga ajratadi. Bular mifologik, diniy, toponimik, tarixiy afsonalardir [6, 6-b]. Tavsifida xayoliy uydirmalarga asoslanishi, bayon usuli, xabar funksiyalari mazkur tiplarni uchun umumiylikni kasb etgan belgilardir. To'rt xil tipning tarix bilan aloqadirliki inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Muhokama. "Mifologik afsonalar" maqolasida alohida turkumni tashkil etgan bu xil afsonalar sinkretik xarakteri bilan farqlanib, ularning qadimgi namunalari g'ayritabiiy hodisalar haqida bayon shaklida paydo

bo'lgan namunolari urf-odat, marosim, din elementlari, xudolar, pirlar haqida hikoya qilishi haqida yozilgan. Bu xil afsonalar o'ziga xos obrazlar tizimiga ekanligi, ya'ni uni ma'bud, xudolar, homiy kultlar, titan, pahlavon, asotir, pirlar, muqaddas kuchlar tashkil etishi haqida aytilgan.

Mifologik afsonalar mazmuni, funksiyasi e'tibori bilan ikki xil tipga bo'linadi. Birinchi guruhni ma'bud, ilohlar tashkil etib, har qaysi ilohiy qudrat muqaddaslashtirilgan n, yaratish funksiyasini ado etish bilan farqlanadi. Ikkinchisini esa pir avliyolar tashkil etib, bu xil obrazlar homiylik funksiyasi bilan alohidalik kasb etadilar.

Mifologik afsonalarni shartli ravishda ma'budlar, ilohlar, pirlar haqida, etiologik va ajdodlar kultiga e'tiqod bilan bog'liq afsonalarga bo'lish mumkin.

Olim diniy afsonalar haqida esa quyidagi qarashlarni ilgari suradi:

- diniy afsona manbaini real voqeelik, islom g'oyalari tashkil etgan.

Bu hodisani badiiy aks ettirish mezonini esa xayoliy uydirmalarga asoslangan va u g'ayri muqarrariy voqea diniy tushuncha, tasavvurlarni jonlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

- Bu xil afsonalar axborot funksiyasini ado etib, islom dini va xalq madaniyati tarixi, shuningdek, jamiyat va tabiatdagi voqea va hodisalarni o'rganishda nodir manba vazifasini o'taydi.

- Obrazlar tizimini payg'ambar, avliyo, shayxlar, tarixiy shaxslar, g'ayridin kishilar tashkil etadi. Har birining harakati, munosabati diniy ma'no bilan yo'g'irilgan, syujet voqealari islomlashtirilgan.

Komiljon Imomovning qarashlariga ko'ra, tarixiy afsonalar shakl-shamoyili, talqin uslubiga ko'ra bayonga asoslanib, mashhur shaxs real hodisalardan darak berish vazifasini ado etadi. Bundan tashqari, bu xil afsonalar tarixiy shaxslar, xususan, Iskandar Zulqarnayn, Luqmoni Hakim, Pahlavon Mahmud kabi mashhur kishilar bilan bog'langan. Olim tarixiy afsonalarda Iskandar shaxsi ikki xil talqin etilganligini, ya'ni birida u donishmand, odil, oliyanob, ikkinchisida esa bosqinchi, zulm siyosatiga amal qilgan adolatsiz shoh sifatida namoyon bo'lganligini ta'kidlaydi. Tarixiy afsonalar tarixiy fakt, ijtimoiy to'qnashuv, shaxslar hayotini aynan saqlaganligi, aks ettirganligi, matonatli kishilarni ideallashtirganligi bilan ham ajralib turadi.

Nihoyat, to'rtinchi tur- toponimik afsonalar xususida olim quyidagi fikrlarni bildiradi: "Toponimik afsona- ilk bor yuzaga kelgan shahar, qishloq, qo'rg'onlar, tog', daryolarning paydo bo'lish, nomlanish sabablarini tavsiflovchi nasriy hikoya. Uning voqealari tabiat, jamiyatni bilish, muayyan tarixi, geografik joyning yuzaga kelish, vayron bo'lish, qal'a, soy, dengiz nomlarining paydo bo'lish tarixini inkishof etadi." [2.65]

Toponimik afsonalarning o'ziga xos belgilaridan yana biri hikoya voqealaridan hissa chiqarish xususiyatidir. Qissadan hissa tugallama

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. Тошкент, 1990, 287 бет.
2. Имомов К. Ўзбек халқ наصري поэтикаси. Тошкент, Фан, 2008, Б. 248.
3. Мирзаев Т. Устозлар, сафдошлар, издошлар. Тошкент, Тафаккур томчилари, 2021, 381 бет.
4. Қасқабасов С.А. Жанры казахской народной (несказочной) прозы. Автореф. Дис. ... д-ра филол.наук. М., 1989. С. 7.
5. Қошғарий М. Девону луготит-турк, 3-том, Тошкент, 1963, 168-бет.
6. Имомов К. Афсона. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 2-том. Тошкент, 1989, 6-бет

shaklida bo'lib, muayyan fakt misolida tasdiqlanadi. Eng muhimi urg'u berib, qayd etiladi, ko'rsatiladi. Jumladan, "Shu-shu qishloq "Ilon buzg'on atalibdi", "Afrosiyob lashkarlari ko'milgan yerda "Qora qum" sahrosi bunyodga kelgan", "O'sha vaqtdan boshlab karvonlar bu la'natlangan joyga qo'nmay o'tadilar". Bunday tugallanmalar tinglovchi shuurini jalb etib, voqelikka ishonch uyg'otadi.

Bu xil afsonalar hikoya qilishning "o'tmishga bir nazar" qabilida ish yuritishi bilan ajralib turadi. Hodisalar aniq makonda yuz beradi, voqea vaqti qadim o'tgan zamonga yo'naltirilgan bo'lib, konkret joyda yakun topadi.

Xulosa. Komiljon Imomov o'zbek folklorshunosligida afsona janrining nazariy asoslarini yaratgan va uni ilmiy jihatdan mukammal tavsiflab bergan yetuk olimlardan biridir. Uning asarlarida afsonalarning xalq dunyoqarashi, tarixiy xotira, diniy e'tiqodlar hamda mifologik tasavvurlar bilan uzviy bog'liqligi chuqur yoritilgan. Olim afsonalarni faqat badiiy hodisa sifatida emas, balki xalqning ma'naviy hayoti, tarixiy tajribasi va madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan muhim og'zaki manba sifatida baholaydi.

Komiljon Imomov tomonidan ishlab chiqilgan mifologik, diniy, tarixiy va toponimik afsonalar tasnifi mazkur janrning ichki tuzilishi va mazmuniy xususiyatlarini aniqroq anglash imkonini beradi. Ushbu tasnif afsonalarning kelib chiqish manbalari, funksional vazifalari va obrazlar tizimidagi o'ziga xos jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, afsonalarning voqelikni xalqona idrok etish, tarixiy hodisalarga munosabat bildirish va muayyan joy nomlarining kelib chiqishini izohlashdagi ahamiyati olim tomonidan asosli ravishda ko'rsatib berilgan.

Olimning qarashlari afsonalarni mif, rivoyat va boshqa xalq nasri janrlaridan farqlashda ham muhim mezon vazifasini bajaradi. Uning ta'kidlashicha, afsonalarda tarixiy yoki xayoliy voqealar xalq tasavvuri asosida qayta talqin qilinib, tinglovchida ishonch uyg'otadigan shaklda bayon etiladi. Shu jihatdan afsona xalq tafakkurining mahsuli sifatida nafaqat estetik, balki ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Komiljon Imomovning afsona janriga doir ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Uning nazariy qarashlari o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur qarashlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodlari va tarixiy xotirasini anglashda, milliy madaniy merosning mazmun-mohiyatini chuqurroq yoritishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Afsona janrining janriy tabiatini belgilash, uning ichki turlarini farqlash hamda xalq nasri tizimidagi o'rmini aniqlash borasida Komiljon Imomov tomonidan ilgari surilgan g'oyalar o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

7. Имомов К. Афсона жанри. // Ўзбек тили ва адабиёти. -1974.-1-сон.-Б.68-72.

8. Имомов К. Обидалар ҳақидаги афсоналар. Тошкент, Фан ва турмуш, 1974, 3-сон.

9. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси жанрларининг тарихийлик принциплари // Ўзбек тили ва адабиёти. -1984.-5-сон.-Б.34-38.

10. Хотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча- ўзбекча изоҳли лугати. Тошкент, 1979. 159-160-бетлар.